

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Sabirov	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Kosimov	
Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Karimova	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Doroina	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	
Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765



SEVINCHXOJAXON XONADONI TARIXI MANBALARDA YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ ДИНАСТИИ СЕВИНЧХОДЖАХАНА В ИСТОЧНИКАХ

COVERAGE OF THE HISTORY OF THE DYNASTY OF SEVINCHKHOJAKHAN IN THE SOURCES

Nishonov Abdurashid Abdurasulovich 

Farg'ona davlat universiteti, PhD

Annotatsiya

Sevinchxojaxon xonadoni tarixini yoritishda tarixiy yozma manbalar katta ahamiyatga ega. Ulardan samarali foydalanish ushbu davr tarixini chuqur o'rganish, bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarning to'la tasvirini qayta tiklash, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini to'g'ri tahlil qilish, davrning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini to'laroq yoritishga yordam beradi.

XVI asrda Markaziy Osiyo hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarga oid ko'plab tarixiy manbalar mavjud. Ularda biz o'rganayotgan Sevinchxojaxon davri tarixi haqida haqiqatli ma'lumotlar uchraydi. Tadqiq etilayotgan mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Mualliflarining hikoya qilinayotgan voqealarga qay darajada aloqadorligi hamda ularning shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, tarixiy manbalarga tanqidiy yondashildi. Manbalardagi ma'lumotlarni mantiqiy jihatdan bog'lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. Tarixiy voqea va hodisalarning mintaqalararo bog'liqlikda rivojlanishidan kelib chiqib, ilmiy farazlar bildirildi.

Maqolada foydalanilgan tarixiy manbalarni hususiyatlaridan kelib chiqib guruhlar bo'yicha tahlil qilishni lozim topdik hamda ularning mazkur tadqiqot uchun alohida ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratdik.

Аннотация

Большое значение в освещении истории рода Севи́нчходжахан имеют исторические письменные источники. Эффективное их использование заключается в глубоком изучении истории этого периода, воссоздании полной картины политических, социально-экономических событий, правильном анализе причин и последствий их возникновения, социально-экономических и культурных аспектов периода, помогает сделать вашу жизнь ярче.

Существует множество исторических источников об исторических событиях, происходивших в регионах Средней Азии в XVI веке. Они содержат ценные сведения об истории периода Севи́нчходжахан, который мы изучаем. Для изучения исследуемой темы были использованы исторические источники и научная литература. К историческим источникам подходили критически, исходя из степени соответствия их авторов рассказанным событиям и их личных взглядов. В процессе логической связи информации в источниках использовался метод сравнительного анализа. На основе развития исторических событий и явлений в межрегиональных отношениях были высказаны научные гипотезы.

Мы сочли необходимым проанализировать использованные в статье исторические источники по группам с учетом их характеристик и обратить внимание на их особо важные для данного исследования аспекты.

Abstract

Historical written sources are of great importance in elucidating the history of the Sevinchhojakhon family. Effective use of them is a deep study of the history of this period, reconstruction of the full picture of political, socio-economic events, correct analysis of the causes and consequences of their origin, socio-economic and cultural aspects of the period, helps to brighten up your life.

There are many historical sources about the historical events that took place in the regions of Central Asia in the 16th century. They contain valuable information about the history of the period of Sevinchhojakhon, which we are studying. Historical sources and scientific literature were used to study the researched topic. Historical sources were critically approached based on the degree of relevance of their authors to the narrated events and their personal views. The method of comparative analysis was used in the process of logically connecting the information in the sources. Based on the development of historical events and phenomena in interregional relations, scientific hypotheses were expressed.

We found it necessary to analyze the historical sources used in the article by groups based on their characteristics and pay attention to their particularly important aspects for this research.

Kalit so'zlar: *Sevinchxojaxon, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyot, tadqiqot, mualliflar, "Tarixiy Rashidiy", "Boburnoma", "Shayboniynoma", Ahsi, Toshkent, Muhammadyor ibn Arab Qatag'an.*

Ключевые слова: *Севи́нчходжахан, исторические источники, научная литература, исследования, авторы, «Тарихи Рашиди», «Бобурнома», «Шайбанинома», Ахси, Ташкент, Мухаммадьяр ибн Араб Катаган.*

Key words: *Sevinchhojakhon, historical sources, scientific literature, research, authors, "Tarikhi Rashidi", "Boburnoma", "Shaibaninoma", Ahsi, Tashkent, Muhammadyar ibn Arab Qatagan.*

KIRISH

Sevinchxojaxon xonadoni tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlar muallifi noma'lum "Tavorix-i guzida, nusratnoma", Zahiriddin Muhammad Boburni "Boburnoma", Kamoliddin Binoiyni "Shayboniynoma", Muhammad Solihni "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ro'zbexon al-Isfahoniyni "Mehmonnomayi Buxoro", G'iyosiddin Xondamirni "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar", Iskandarbek Munshiyning "Tarixi olamoroyi Abbosiy", Mirzo Muhammad Haydarni "Tarixi Rashidiy", Muhammadyor ibn Arab Qatag'anni "Musaxxir al-bilod", Hofiz Tanish al-Buxoriyni "Abdullanoma" Shox Mahmud ibn mirza Fozil Churasning "Tarix", Mulla Sharafuddin A'lamning "Tarixi qasira", kabi tarixiy manbalarda qisman bayon qilingan.

Tadqiq etilayotgan mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Mualliflarining hikoya qilinayotgan voqealarga qay darajada aloqadorligi hamda ularning shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, tarixiy manbalarga tanqidiy yondashildi. Manbalardagi ma'lumotlarni mantiqiy jihatdan bog'lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. Tarixiy voqea va hodisalarning mintaqalararo bog'liqlikda rivojlanishidan kelib chiqib, ilmiy farazlar bildirildi.

Maqolada foydalanilgan tarixiy manbalarni hususiyatlaridan kelib chiqib guruhlar bo'yicha tahlil qilishni lozim topdik hamda ularning mazkur tadqiqot uchun alohida ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratdik.

NAZARIY, MUXOKAMA

Shayboniylar davri tarixiga oid muhim manbalardan biri muallifi noma'lum Fazlulloh ibn Ro'zbexon al-Isfahoni (1457–1521) qalamiga mansub "Mehmonnomayi Buxoro" asaridir. Ushbu manbada shayboniy sultonlar hususan Sevinchxojaxon tarixiga oid ma'lumotlar ham uchraydi [2]. Fazlulloh ibn Ro'zbexon 1457-yil Eronning Xunji qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Isfahonda olgan Fazlulloh ilm izlab ko'plab mamlakatlarga safar qilgan. Shoh Ismoil tomonidan Eronda shialikni qo'llab-quvvatlash siyosatining olib borilishi natijasida u o'z yurtini tark etib, Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro xizmatiga kelgan. Shayboniixon Hirotni zabt etgandan so'ng ko'plab olimlar singari u ham Samarqandga ko'chgan va saroyda muarrix vazifasida faoliyat olib borgan. Fazlulloh ibn Ro'zbexon Shayboniixonning so'nggi besh -yillik faoliyatida unga hamrohlik qilgan. Harbiy yurishlarda ishtirok etganligi, saroy majlislarida qatnashganligi sababli ham o'zi guvoh bo'lgan voqealarni yozib borgan. Muarrix "Mehmonnomayi Buxoro" asarini Buxoroda 1509-yil yanvar oyidan yozishni boshlab, Hirotda 1509-yilning sentyabrida tugatgan. Ushbu asarning ikki nusxasi bizgacha saqlanib qolgan. Muallif o'z dastxati bilan yozgan asl nusxa O'zR FA SHarqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda [8]. Uning ikkinchi nusxasi Turkiyaning "Nuri Usmoniya" kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmadir. 1962-yil ushbu qo'lyozma eronshunos sharqshunos olim M.Sutude tomonidan chop etilgan [1]. R.Jalilova 1967-yilda Toshkent qo'lyozmasi asosida asarning faksimil nusxasini va 1508–1509 -yillardagi tarixiy voqealar bayoniga oid qismlarining rus tiliga qilingan tarjimasini nashr etgan.

Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Turkiston, Qozoq ulusi hududlarida XVI asr boshlarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar izchillikda bayon qilingan. Ushbu manbada biz o'rganayotgan mavzuga oid juda qisqa, lekin muhim ma'lumotlar uchraydi. Manbada qozoq xonlariga qarshi yurish munosabati bilan Buxoroda o'tkazilgan kengashda Toshkent hokimi Sevinchxojaxon sultonning ishtiroki haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Qolaversa, muallif qozoq sultonlari ustiga qilingan yurish davomida Shayboniylar lashkari tarkibida bo'lgan Farg'ona qo'shinining faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlari Shayboniixon va Jonibek sulton o'rtasidagi nizoning kuchayib borganligi haqidagi qimmatli ma'lumotlar, shu yurishdan so'ng Farg'ona mulki Jonibek sultondan tortib olinib, Toshkent hokimi Sevinchxojaxonga berilganligidan dalolat beradi [10]. SHuningdek, ushbu asarda Sevinchxojaxon sulton tasarrufidagi Farg'ona mulkining ma'muriy chegaralari haqida ilmiy xulosa chiqarishga asos bo'luvchi muhim voqealar yoritilgan [10].

TARIX

G'iyosiddin Xondamir (1473–1534) ning 1520–1524-yillarda yozilgan eng yirik "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" ("Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st") asari ham XVI asrning birinchi choragida kechgan tarixiy voqealarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi [13]. Bu manbaning qo'lyozma nusxalari ko'p tarqalgan. Asarning tanqidiy matni 1857-yili Bombeyda hamda 1954-yili Tehronda chop etilgan[4]. Asarning Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatiga oid qismi 2011-yilda[6], to'liq matni esa 2013-yilda o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi [7].

"Habib us-siyar" uch bob va xotimadan hamda har bob to'rt qismdan iborat bo'lib, Shayboniyar haqidagi ma'lumotlar uchinchi bobning to'rtinchi qismida uchraydi. Ushbu bobning ayrim voqealarida Xondamirning o'zi ham ishtirok etgan. Bu esa manbaning ishonchligini yanada oshirgan [5]. Asarda Sevinchxojaxon va uning avlodlariga oid ma'lumotlar kam uchrasa-da, ular boshqa manbalardagi ma'lumotlarni to'ldiradi. Asardagi Shayboniyxonning vodiya mo'g'ul xonlari hamda Bobur mirzo bilan olib borgan janglarida hamda, Safaviylarga qarshi olib borgan yurishlarida shayboniy sultonlar orasida Sevinchxojaxon qo'shini bilan ishtiroki haqida ma'lumotlar ushu maqoladagi bizning tadqiqotimiz uchun qimmatlidir [7].

Hofiz Tanish Buxoroiy (1549-1635) tomonidan she'riy san'at va saj uslubi hamda badiiy usullardan keng foydalangan holda yozilgan "Sharafnomai shohiy" ("Podshohni sharaflovchi kitob") asari o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir [12]. Ushbu asar "Abdullanoma" nomi bilan mashhur. Muallif asarni yozishda o'zidan oldingi tarixchilarning ma'lumotlaridan, saroyda yuritilgan kundaliklardan va voqealar ishtirokchilarining og'zaki ma'lumotlaridan foydalangan hamda o'zi guvoh bo'lgan voqealarni bayon qilgan. Ushbu asarning qiymati shunda-ki, biz o'rganayotgan Sevinchxojaxon xonadoniga oid ma'lumotlarni muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni tasvirlab o'tganidir. Manbada Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson va Eronda XVI asrda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan[4]. Mazkur asarning ko'lyozma nusxalari ko'p. Uning Sankt-Peterburgdagi nusxasiga asoslanib matnning uchdan ikki kismi sharqshunos M.Salohiddinova tomonidan rus tiliga tarjima kilingan[11]. Kitob 1942–1952-yillari S.Mirzaev va oxirgi qismi o'tgan asrning 60-yillarida Y.Hakimjonov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Tuzatilgan hamda qayta ishlangan yangi nashri ikki kitob holda Bo'riboy Ahmedov tomonidan 1999-yili nashr etildi [12].

Muarrir "Abdullanoma" asarida Juvonmardali sulton Gadoy sultonga yordam berish uchun Sevinchxoja xonadoni vakili Bobo sultonga qarshi Axi va Andijondan qo'shin bilan kelgani haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Shuningdek, asarda Abdullaxonning Farg'ona vodiysida Baroqxon avlodlari bilan olib borgan kurashi, Axi hamda Andijon shaharlarini egallashi haqida ham so'z yuritilgan.

Sevinchxojaxon avlodlarining Toshkent va Farg'ona vodiysida hukmronligiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar uchraydigan yana bir manba "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarning egallanishi") asaridir [9]. XVI asr ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmi oxirlarida yashagan Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub ushbu asar 1498–1611-yillardagi tarixiy voqealarni o'z ichiga olgan. Bizgacha ushbu manbaning ikki nusxasi etib kelgan. "Musaxxir al-bilod" asari va uning muallifi haqida har ikki nusxa asosida fikr bildirgan birinchi o'zbek olimi Bo'riboy Ahmedovdir [3]. Ushbu manbaning fors tilidagi nashri 2008-yili Tehron shahrida Nodira Jaloliy tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek tilida esa 2009-yili Toshkent shahrida Ismoil Bekjonov va Dilorom Sangirova tomonidan nashr etildi [9].

"Musaxxir al-bilod" asari olti bobdan iborat bo'lib, manbaning uchinchi bobi Sevinchxojaxon va uning avlodlariga bag'ishlangan bo'lib, shu qismda Toshkent va Farg'ona vodiysida hokimlik qilgan shayboniy sultonlar nomlari izchillikda bayon qilingan [9]. Navro'z Ahmadxon va uning avlodlari, xususan, Bobo sulton bilan Abdullaxonning kurashlari, Toshkent va Farg'ona qo'shini tarkibida o'sha davrning zamonaviy to'p va miltiqlar bilan qurollangan Usmonli turklardan iborat maxsus yollanma qo'shinining bo'lganligi haqidagi qimmatli ma'lumotlar uchraydi [9. 174]. Shuningdek, manbada Toshkentda hokimiyat Darveshxon qo'liga o'tgan vaqtda vodiya yana ikki ma'muriy birlikka bo'linib Andijon Amin sultonga, Axi Do'st Muhammad sultonga berilganligi ta'kidlanadi [9. 164]. Farg'ona Abdullaxon tomonidan egallangandan so'ng ushbu ma'muriy bo'linishni saqlab qolgan bo'lsa-da, vodiyni Toshkent orqali idora qilish tartibi bekor qilinib, to'g'ridan to'g'ri Buxorodagi markaziy hokimiyatga bo'ysundirilganligi ta'kidlangan.

Safaviylar va Shayboniylar o'rtasida Eronning Jom shahrida bo'lib o'tgan yirik jangda Keldi Muhammad sulton rahbarligidagi qo'shin tarkibida farg'onaliklardan iborat harbiy qismlar ham ishtirok etganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. "Musaxxir al-bilod"da Abdullaxon vafotidan keyin SHayboniylar va Qozoq sultonlari o'rtasidagi shiddatli kurashlar jarayonida vodiya yuz bergan siyosiy voqealar batafsil yoritilgan. Vodiya hokimlik qilish uchun yuborilgan ba'zi shayboniy sultonlar, aslida markaziy hokimiyatdan chetlatish maqsadida Farg'onaga yuborilganligi haqida ma'lumotlar esa o'sha davr siyosiy iqlimini tushunishga yordam beradi.

XULOSA

Sevinchxojaxon xonadoni tarixini tadqiq qilish maqsadida XV – XVII asrda yaratilgan manbalar tahlili yuzasidan quyidagi xulosalarni bildirish mumkin;

– maqolamizdamiz mavzusiga oid manbalarda, asosan, Shayboniyxon hamda shayboniy sultonlarning harbiy yurishlari, markazlashgan davlat barpo etish yo'lidagi kurashlari aks etgan. Shayboniy sultonlarga tegishli bo'lgan markaziy viloyatlardagi tarixiy voqealar manbalarda keng yoritilib, Shayboniylar davlatining shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan Toshkent va Farg'ona vodiysi tarixiga oid ma'lumotlar esa juda kam uchraydi. Mavjud ma'lumotlar ham mamlakatning sharqiy qismida yuz bergan ayrim yirik voqealarga bag'ishlangan bo'lib, biri-biri bilan bog'lanmagan hamda ularda mantiqiy izchillik etishmaydi;

– shayboniylar hukmronligi davri tarixiy manbalarida Farg'ona vodiysi haqidagi ma'lumotlarning kamligi va tarqoqligi, mavjud ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy yondashuvni hamda ulardan unumli foydalanishni talab qiladi;

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mehman-name-ye Bokhara. Fazlollah ibn Ruzbehon Khonji. Edited by Manoochexr Sotoodeh. – Tehran: 1962. Фазлаллах ибн Рузбихан Хунджи. Михман-наме-йи Бухара. Под кпечати Манечехр Сутуда. – Тегеран: 1962. – 445 с.
2. Аренде А. От редактора // Фазлаллах ибн Рузбихан Исфահаний. Михман-наме-йи Бухара. – С. 13-14;
3. Аҳмедов Б. Истроия Балха. – Т.: Фан, 1982.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 208.
5. Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 62-63.
6. Фиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи – Исмоил Бекжонов, – Т.: Шарқ, 2011. – 709 б.
7. Фиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон. 2013. – 1271 б.
8. Михман-наме-йи Бухара. ЎзР ФА Шарқшунослик институти. Қўлёзма. № 1414.
9. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Тасҳиҳи Нодири Жалолий. – Тегрон: Мероси Мактуб, 2008 (Фарс тилида); Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (мамлакатларнинг эгалланиши) / Фарс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. (Ўзбек тилида) – 429 б.
10. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфահаний. Михман-наме-йи Бухара («Записки бухарского гостя») / Перевод, предисловие и примечания Джалиповой Р.П. / Под ред. Аренде А.К. – Москва: Наука, 1976. – С. 201.
11. Хофиз-и Таниш Бухори. Шарафнома-йи шахы. (Книга Шахской славы) / Введение, перевод, примичение, указатели М.А.Салахединовой. – М.: Наука, 1983. Ч.1. – 293 с.
12. Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий). Биринчи китоб / Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Т.: Шарқ, 1999. – 416 б.; Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий). Иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов таржимаси; илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 416 б.
13. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. – Т.: Фан, 2006. – С. 74-85